https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkenat Axborot Texnologiyalar Universiteti 1-kurs talabasi
Tolibjonov Ilyosbek Tolibjon o‘g‘li
ilyosbektuit2025@gmail.com

MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tavsifi, milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan yalpi ichki mahsulot, uning qismlarining iqtisodiy mazmuni va harakat shakllari yoritiladi. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash tizimi hamda uning asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari bayon etiladi va so‘nggi yillardagi YaIM hisoblanishlari rasmiy manbalar asosida keltiriladi.

Kalit so‘zlar: YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot), YaMM (Yalpi Milliy Mahsulot), SIM (Sof Ichki Mahsulot), MD (Milliy Daromad), shaxsiy daromad, nominal YaIM, real YaIM, milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, aholi daromadi (AD), nominal mahsulot, real mahsulot, narx indeksi (NI).

Аннотация. В данной статье анализируются экономические отношения на макроэкономическом уровне. Также раскрывается сущность национальной экономики и даётся характеристика её макроэкономических показателей. Особое внимание уделяется валовому внутреннему продукту как результату национального производства, экономическому содержанию его составляющих и формам их движения. Излагается система расчёта валового внутреннего продукта, а также методы определения его основных показателей. Кроме того, на основе официальных источников приводятся данные о расчётах валового внутреннего продукта за последние годы.

Ключевые слова: ВВП (Валовой внутренний продукт), ВНП (Валовой национальный продукт), ЧВП (Чистый внутренний продукт), НД

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

(Национальный доход), личный доход, номинальный ВВП, реальный ВВП, национальная экономика, макроэкономика, микроэкономика, доходы населения, номинальный продукт, реальный продукт, индекс цен.

Abstract. This article analyzes economic relations at the macroeconomic level. It also examines the essence of the national economy and provides a detailed description of its macroeconomic indicators. Particular attention is given to gross domestic product as the result of national production, including the economic substance of its components and the forms of their movement. The article outlines the system for calculating gross domestic product and the methods used to determine its key indicators. In addition, gross domestic product estimates for recent years are presented based on official sources.

Keywords: GDP (Gross Domestic Product), GNP (Gross National Product), NDP (Net Domestic Product), NI (National Income), personal income, nominal GDP, real GDP, national economy, macroeconomics, microeconomics, population income, nominal output, real output, price index.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash va uning holatini ob’ektiv baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, xususan, yalpi ichki mahsulot (YIM) milliy iqtisodiyotning umumiy holati, ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ifodalovchi asosiy indikator sifatida namoyon bo‘ladi. YaIM orqali mamlakatda yaratilayotgan qo‘shilgan qiymat hajmi, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda aholining farovonlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, YaIM nafaqat iqtisodiy o‘sishni o‘lchash vositasi, balki davlatning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ko‘rsatkich hisoblanadi. “**O‘zbekiston — 2030**” strategiyasida ham aynan iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish maqsadi belgilab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qo‘yilganligi sohaning dolzarbligidan dalolat beradi. Ayniqsa, YaIM ning ishlab chiqarish, daromad va xarajatlar bo‘yicha harakat shakllarini chuqur o‘rganish milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — milliy iqtisodiyot tushunchasi va uning makroiqtisodiy o‘lchamlarini ilmiy jihatdan yoritish, yalpi ichki mahsulotning mohiyati hamda uning harakat shakllarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida YaIMni so‘nggi yillardagi ko‘rsatkichlarini rasmiy manbalardan foydalanib hisoblanishi va tahlil qilinishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar sharhi

Maqolaning asosiy qismiga o‘tishdan avval milliy iqtisodiyot, uning tarkibiy tuzilishi va makroiqtisodiyotga bog‘liqliligini ta‘kidlab o‘tishimiz muhim. Xususan Sh.Shodmonov, M.Rahmatov muallifligi asosida ishlab chiqilgan “Iqtisodiyot Nazariyasi” (2021) darsligi ilmiy izlanishimni boshlashga asos bo‘ldi. Ushbu darslik-da mamlakatning iqtisodiy jihatdan o‘zgarganligini aniqlashda YaIM ko‘rsatkich-laridan foydalanishi hamda uning hisoblanish usullari tushunarli tarzda yoritib berilgan.

YaIM hajmini hisoblashda bir qancha usullar bilan hisoblanishini, YaIM va YaMM orasidagi farq rivojlangan mamlakatlarda taxminan ±1% qismini tashkil qilishini N.Gregory Mankiw o‘zining “PRINCIPLES OF ECONOMICS” (2018) darsligida keltirib o‘tgan.

Shuningdek, ushbu maqolada keltiriladigan nazariya va ba’zi atamalar rus iqtisodchisi А.И.Добринина, Л.С.Тарасевича ning “ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ” (2009) asaridan foydalanib taqdim etiladi.

Ushbu yuqoridagi darsliklar, maqolalar va qo‘shimcha rasmiy statistik manbalar yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullarini o‘rganishda, ularni hisoblanishda va tahlil qilinishida katta yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o‘lchamlarini, xususan yalpi ichki mahsulot va uning harakat shakllarini tadqiq etishda umum

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari yordamida milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qismlari hamda ularning iqtisodiy mazmuni o‘rganildi.

Induksiya va deduksiya usullari orqali makroiqtisodiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlari asosida xulosalar shakllantirildi. Statistik va taqqoslama tahlil metodlari yordamida yalpi ichki mahsulotning so‘nggi yillardagi hisoblanish ko‘rsatkichlari rasmiy statistik manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Milliy iqtisodiyot – barcha sohalarni, mikro va makro darajadagi iqtisodiyot-larni, funksional iqtisodiyotni, ko‘plab infratuzilmalarni o‘z ichiga olgan murakkab iqtisodiyotdir. Makrodarajada qaralganda milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mavjud ishlab chiqarish resurslari, resursning ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ajralib chiqqan iqtisodiy subektlar o‘rtasidagi taqsimot hajmi, iqtisodiy subekatlarning ishlab chiqarish hajmlari va milliy mahsulotning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonlarida shakllanuvchi tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat sifatida namoyon bo‘ladi.

Aholining doimiy ravishda o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish milliy iqtisodiyotning asosiy funksional vazifasi ekanligini ko‘rsatadi. Milliy iqtisodiyotning ushbu asosiy vazifasi qay darajada olib borilayotganligi makroiqtisodiy tahlil yorda-mida amalga oshiriladi. Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi esa takror ishlab chiqarish jarayonini ob’ektiv aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan foydalanish orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni shaffof ko‘rsatib berishdan iborat.

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sodda ko‘rinishda 1-rasm orqali ko‘rish mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



1-rasm. Milliy iqtisodiyotning soddalashtirilgan tarkibiy tuzilishi[1]

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsat-kichlar yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), aholi daromadlari (AD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi barcha xo‘jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

Milliy mahsulot mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari


Jamiyat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarining doimiy tarzda yangilanib, yaxshilanib va takrorlanib turishi **ijtimoiy takror ishlab chiqarish** deyiladi. va bu oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish tarzida amalga oshirilishi mumkin; **Oddiy takror ishlab chiqarish** deb ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari-ning hajm va sifat jixatdan o‘zgarmagan holda takror ishlab chiqarilishiga aytiladi. Odatda bunday ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘proq o‘z ichki ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan natural xo‘jalik va oddiy tovar xo‘jaligi davri uchun xos bo‘lgan. **Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish** deb ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muntazam ravishda oshib borgan holdagi

[1] Ushbu rasm Sh.Shodmonov, M.Rahmatov “Iqtisodiyot Nazariyasi” (2021) darsligi 453-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

takrorlanishiga aytiladi. Bu tur barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xosdir.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) - bu o‘z mamlakatida joylashgan milliy korxonalar tomonidan muayyan muddat davomida, masalan, bir yilda yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy bozor qiymatidir. Biroq, ta’kidlash lozimki, milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini aniqroq ifodalash va taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko‘rsatkichi qulayroqdir. YaMM va YaIM ning o‘zaro farqini ***2-rasm*** orqali aniqroq ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. YaIM va YaMM o‘rtasidagi tarkibiy jihatlar[2]

Demak, rasmdan ko‘rinadiki, mamlakat YaMM 100 trln.so‘mni (M_2 va M_3 shartli raqamlar yig‘indisi), YaIM esa 104 trln. so‘m (M_2 va M_1 shartli raqamlar yig‘indisi)ni tashkil etadi.

YaIM ning o‘sish darajasiga qaraydigan bo‘lsak, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 5,6 foizni tashkil etgan edi. Olib borilgan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000 yildagi 20,2 foiz o‘rniga 2019 yilda 36,4 foizni, xizmatlar ko‘rsatish sohasining ulushi 37,2 foiz o‘rniga 35,5 foizni tashkil

[2] Ushbu rasm Sh.Shodmonov, M.Rahmatovning “Iqtisodiyot Nazariyasi” (2021) darsligi 458-betidan foylanilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

etdi. Qishloq xo‘jaligida esa 2000 yildagi 30,1 foizdan 2019 yilda 28,1 foizga o‘zgardi.

Rivojlanishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’-atlarini saqlab qolish" 10% vazifasi belgilanib, uni amalga oshirish jarayoni jadallik bilan olib borildi.

1-jadval. Yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqilish tarkibi, foizlarda.[3]

Ko‘rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	88,5	88,8	90,9	93,3	93,5	93,1	95,2	95,4
Sanoat	27,9	32,6	36,4	34,1	34,4	34,2	32,3	33,4
Qishloq xo‘jaligi	34,0	31,5	28,1	23,4	23,4	21,9	21,2	19,4
Xizmatlar sohasi	38,1	35,9	35,5	42,5	42,2	43,9	46,5	47,2
Sof soliqlar	11,5	11,2	9,1	6,7	6,5	6,9	4,8	4,6

Iqtisodiy rivojlanishni ko’rishda yalpi ichki mahsulotni to‘g‘ri hisoblash juda muhim. Uning hajmini to‘g‘ri hisoblab chiqish uchun esa mazkur yilda ishlab

[3] 1-jadval orqali to‘liq ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ma’lumotlar www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining sayti; O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. // O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining nashri, 2024-yanvar-sentabr. Toshkent 2025. Manbasiga asoslanib tayyorlangan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishini talab qiladi. YaIM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko‘p marta takror hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, hozirgi davrda iqtisodiyotning barcha kor-xona va tarmoqlarida ***qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi*** hisobga olinadi.

Qo‘shilgan qiymat bu korxonalar yalpi mahsulotidan (amortizatsiya ajratmasi-dan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangandan qolgan qismidir.

Yalpi ichki mahsulot va uning hisoblash usullari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalani-ladi. Milliy hisoblar tizimi (MHT) - bu barcha asosiy iqtisodiy jarayonlarni, takror ishlab chiqarish sharoitlari, jarayonlari va natijalarini tavsiflovchi o‘zaro bog‘liq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimidir. Hozirgi vaqtda milliy hisoblar tizimi asosida YaIM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul bu YaIMni hisoblashda qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha yondashuv.

Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo‘yicha yaratilgan qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi hisoblab chiqiladi. Qo‘shilgan qiymatni aniqlash jami ijtimoiy mahsulotdan oraliq mahsulotlar va xomashyo, yoqilg‘i, materiallar qiymatini chegirish orqali amalga oshiriladi. Bu usul bilan hisoblangan YaIM alohida tarmoq-larning shu mahsulotni yaratishdagi o‘rnini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

$$\mathbf{YaIM} = \sum \mathbf{(Yalpi\ ishlab\ chiqarish - Oraliq\ iste'mol)}$$

Quyida 2022-yilning I-yarim yilligida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar bo‘yicha YaIM ning hisoblanishi joriy narx asosida *mlrd so‘m birligida 2-jadval orqali keltiriladi. 2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar O‘zkekiston Respublikasi Milliy Statistikasi manbasiga asoslanib ishlab chiqildi. (*mlrd so‘m birlikda)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2-jadval. 2022-yil I-yarim yillik YaIM hisoblari[4] (*mlrd.so‘m birlikda)

Tarmoq	Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste’mol	Qo‘shilgan qiymat
Sanoat	120	70	50
Qishloq xo‘jaligi	80	40	40
Xizmatlar	150	60	90

YaIM = 50 + 40 + 90 = 180mlrd.so‘m

Ikkinchi usul - bu YaIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo‘yicha yondashuv.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan hamma sarflar qo‘shib chiqiladi. Uy xo‘jaliklari, investitsion sarflar, zaxiralar kamayganligi, davlat sarflarining toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zaxirasidagi o‘zgarishlarni qo‘shib chiqish yo‘li bilan YaIM hajmi aniqlanadi.

YaIM = Ish haqi + Renta + Foiz + Foyda + Amortizatsiya + Sof soliqlar

3-jadval. 2022-yil I-yarim yillik YaIM hisoblanishi (*mlrd so‘m)[5]

Ko‘rsatkich	Miqdor (mlrd.so‘m)
Ish haqi	90
Foyda	45
Foiz	15
Renta	10
Amortizatsiya	12
Sof soliqlar	8

YaIM = 90 + 45 + 15 + 10 + 12 + 8 = 180 mlrd so‘m

Uchinchi usul - bu YaIMni hisoblashga daromadlar bo‘yicha yondashuv.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo‘jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to‘lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YaIM pirovard mahsulot hisobidan

[4] 2-jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga asoslanib tayyorlandi. Birinchi usul. Manba: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34106-2022-yilda-o-zbekiston-respulikasi-yaim-qanchani-tashkil-etdi

[5] 3-jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga asoslanib tayyorlandi. Ikkinchi usul. Manba: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34106-2022-yilda-o-zbekiston-respulikasi-yaim-qanchani-tashkil-etdi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

olingan ana shu barcha daromadlarni qo‘shib chiqish orqali aniqlanadi. YaIMni daromadlar bo‘yicha hisoblashda uy xo‘jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya’ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin.

YaIMni mazkur usul bo‘yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste’mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo‘shiladi. YaIMni hisoblashga sarflar va daromadlar bo‘yicha yondashuvning asosiy tarkibiy qismlarini 4- jadval orqali o‘zaro taqqoslash mumkin.

4-jadval. YaIM ni hisoblashga sarflar va daromadlar bo‘yicha yondashuv[6]

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo‘yicha hisoblash	**Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo‘yicha hisoblash**
1. Uy xo‘jaliklarining iste’mol sarflari +	1. Daromad bilan bog’liq bo‘lmagan sarf va to‘lovlar a) amortizatsiya b) egri soliqlar +
2. Tadbirkorlarning investitsion sarflari +	2. Ish haqi +
3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi +	3. Renta to‘lovlari +
4. Chet elliklar sarfi +	4. Foizlar +
5. Notijorat muassasalar sarfi +	5. Foyda
6. Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o‘zgarishlar =	6. =
YaIM	YaIM

YaIMni hisoblashda uning tarkibiga kirgan daromadlarning alohida turlarini batafsil qarab chiqamiz. Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YaIM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklidagi daromad sifatida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hisobida to‘planib boradi. Egri soliqlar korxonalar uchun

[6] 4-jadval muallif tomonidan tuzilgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi va shu sababli mahsulot narxiga qo‘shiladi. Bunday soliqlar aksiz to‘lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig‘i, litsenziya va bojxona to‘lovlarini o‘z ichiga olib, davlat byudjetida daromad sifatida namoyon bo‘ladi. Daromadlarning eng muhim turi bo‘lgan ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to‘lanadi. U ish haqiga ko‘plab qo‘shimchalar, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari va nafaqa ta’minotining har xil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa turli mukofot hamda imtiyozlarni o‘z ichiga oladi. Renta to‘lovlari iqtisodiyotni resurslar (kapital, yer) bilan ta’minlovchi uy xo‘jaliklarining oladigan daromadi hisoblanib, korxona xarajatlari tarkibiga kiradi (yer davlat mulki bo‘lsa renta davlat ixtiyoriga, byudjetga borib tushadi va byudjet daromadi hisoblanadi). Foiz pul kapitali egalariga pul daromadi to‘lovlaridan iborat. Bunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan foizli to‘lovlar foizli daromadlar tarkibidan chiqariladi. Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo‘linadi: bir qismi mulkiy daromad va boshqa qismi esa korporatsiyalar foydasi deyiladi.

$$\textbf{YaIM} = \textbf{Aholi iste'moli} + \textbf{Investitsiya} + \textbf{Davlat xarajatlari} + (\textbf{Eksport} - \textbf{Import})$$

5-jadval. 2022-yil I-yarim yillik YaIM hisoblanishi (*mlrd so‘m)[7]

Ko‘rsatkich	Miqdor
Aholi iste’moli	95
Investitsiya	40
Davlat xarajatlari	30
Eksport	35
Import	20

$$YaIM = 95 + 40 + 30 + (35 - 20) = 180_{\text{mlrd so‘m}}$$

Qaysi bir usuldan foydalanilmasin natija bir xil, qarashlar boshqa xolos**.**

[7] 5-jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga asoslanib tayyorlandi. Uchinchi usul. Manba: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34106-2022-yilda-o-zbekiston-respulikasi-yaim-qanchani-tashkil-etdi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

6-jadval. YaIM hisoblanishi

(2022-2024 yanvar-sentabr)[8]

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024
	707 857,0	842 711,4	1 015 331,8
Tovar ishlab chiqarish	369,8	429,3	511,2
Xizmat ko'rsatish	289,5	372,7	457,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	48,5	40,6	46,2

*mlrd so'm birlikda

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, tovar ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga hajmi ortib bormoqda. "**O'zbekiston — 2030**" strategiyasida ko'zda tutilgan barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish maqsadni amalga oshirish uchun jadal hatti-harakatlar ishlab chiqilmoqda. Sanoat va xizmat ko'rsatishini 2022-yildagi 289,5mlrd.so'm dan 2024-yildagi 457,9 mlrd.so'mga o'sgani nafaqat aholi daromadi o'sgani balki xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganligidan dalolat beradi. Shunday qilib YaIM ni hisoblashning uch xil usulini ko'rib chiqdik. Lekin ta'kidlash joizki, ularning hech biri YaIM va uning o'sishini aniq qilib hisoblab bera olmaydi va ular yildan yilga takomillashtirib borilmoqda.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan yalpi ichki mahsulot muhim ahamiyat kasb etadi. YaIM milliy ishlab chiqarish hajmini, iqtisodiy faollik darajasini hamda mamlakatda yaratilgan qo'shilgan qiymat miqdorini aks

[8] 6-jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasidagi bir qancha hisobot ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi. Manba: https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/560-o-zbekiston-respublikasining-ijtimoiy-iqtisodiy-holati-2/63526-makroiqtisodiy-indikatorlar-va-milliy-hisoblar-4

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari atroflicha tahlil qilindi. YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, daromadlar va xarajatlar usullari bir xil iqtisodiy jarayonni turli nuqtai nazardan yoritishi aniqlandi. Hisob-kitoblar natijasida ushbu uch usul orqali olingan YaIM ko‘rsatkichlari o‘zaro teng bo‘lib, bu milliy hisoblar tizimining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishining to‘g‘riligini tasdiqladi. Shuningdek, YaIM tarkibida sanoat va xizmatlar sohasi ulushining ortib borishi milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qaror 2023 PF-158 11.09.2023 “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida gi qaror.

2. Qaror 2019 PF-5847 08.10.2019 O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida gi qaror.

3. Sh.Shodmonov, M.Rahmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” (2021) Darslik “ZAMIN NASHR”, 856 bet.

4. N.Gregory Mankiw “PRINCIPLES OF ECONOMICS” (2018) Darslik 866 bet.

5. А.И.Добринина, Л.С.Тарасевича “ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ТЕОРИЯ” (2009) Darslik, “ПИТЕР” nashriyoti, 561 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo’mitasi https://stat.uz/uz/